



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

**I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING
NAZARIY MASALALARI**

**O‘ZBEK ADABIY TILINING TAYANCH DIALEKTINI BELGILASH
YO‘LIDA**

**TOWARDS DETERMINING THE BASIC DIALECT OF THE
UZBEKISTAN LITERARY LANGUAGE**

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/FPWF7062

Ashirboyev Samixon,
filologiya fanlari doktori, professor,
Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU
[*samixon.ashirboyev@mail.ru*](mailto:samixon.ashirboyev@mail.ru)

Annotatsiya. O‘zbek adabiy tilining tayanch dialekti hozirgi davrga kelib izga tushib ketgan masala hisoblanadi, lekin o‘tgan asrning 20-yillarida u qizg‘in munozara qilingan va adabiy tilning taqdirini hal qilishda muhim tadbir hisoblangan. Bu muammo konferensiyalarning muhokama obyekti bo‘lgan va vaqtli matbuotda bu masala bo‘yicha turli chiqishlar qilingan. Ayniqsa, bu ishga jadidlar jiddiy kirishgan edi. Abdurahim Yo‘ldosh ham jadidlardan bo‘lib, u o‘zbek adabiy tilining tayanch dialekti sifatida uni Alisher Navoiy davri tili va jonli shevalardan biri asosida qurish tarafdori bo‘lgan. Maqolada shu masaladagi A.Yo‘ldoshning qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: o‘zbek adabiy tili, sheva, dialekt, asos sheva, tayanch sheva, “chig‘atoy tili”, til va imlo.

Annotation. The basic dialect of the Uzbek literary language is a question that has been lost to modern times, but in the 1920s it was hotly debated and was considered an important event in deciding the fate of the literary language. This problem was the subject of discussion at conferences, and various statements were made on this issue in the press of the time. Jadids were especially serious about this work. Abdurahim Yoldash was also one of the Jadids, who advocated building it as a basic dialect of the Uzbek literary language on the basis of the language of the time of Alisher Navoi and one of the living dialects. The article analyzes A. Yoldash’s views on this issue.

Keywords: Uzbek literary language, dialect, basic dialect, basic dialect, “chig‘atoy language”, language and spelling.

Dunyodagi barcha madaniy tillar adabiy tili me‘yorlari, asosan, biror dialekt asosiga qurilgan bo‘ladi, lekin dunyo amaliyotida adabiy tilning asosi, tayanchi masalasi turlicha hal qilingan. Bu muammoni hal qilishdan oldin adabiy til degan tushunchaning axborot tizimidagi izohlariga to‘xtalishni lozim topamiz, unda adabiy til milliy til tarkibidagi ustdialektal tizim bo‘lib, me‘yorlashgan, kodlashgan, ko‘pfunksiyali, uslubiy farqlangan va til egalarining yuksak ijtimoiy nufuziga sazovor bo‘lishi bilan xarakterlanishi aytiladi (1). Shuningdek, adabiy tilning turli davrlarda va turli tillarda amal qilishi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar bor: ma‘lum davrlarda eroniy tillar uchun arab tilining, yapon va koreys adabiy tili uchun xitoy tilining, german, slavyan adabiy tillari uchun lotin tilining, Boltiqbo‘yi va Chexlarda (XVIII asrgacha) nemis tilining adabiy til vazifasini bajarganligi haqida ma‘lumotlar bor (2).

Adabiy til me‘yorlari bir tiling turli davrlari uchun ham o‘ziga xos bo‘ladi, jumladan, o‘zbek tilining XI-XIV asrlari adabiy tili uchun Turk xoqonligi davri tili, Alisher Navoiy asarlari tili uchun Andijon shevalari tayanch bo‘lganligi (3) va va XX asr boshlarigacha bu an‘ana davom etganligi fanimizda e‘tirof qilinib kelinmoqda.

Ma‘lumki, adabiy til va uning tayanch dialekti masalasi o‘tgan asrning 20-yillarida muammolar girdobiga tushib qolgan edi. Bu borada ayniqsa jadidlar ashaddiy munozara qilishganligi ham fanimizda ma‘lum. Davr vaqtli matbuotida va turli konferensiyalarda A.Najib, M.Ramz, A.Avloniy, N.Said, O.Ayyub, H.Fayziy, A.Alaviy, Y.Omon, S. Xudoyberdiyev, Ahadova, Faxriy, B.Qoriev, G‘.Olim va boshqalar til va imlo masalasi, ya‘ni adabiy til grafikasini tartibga tushirish bilan bog‘liq ravishda uning asos shevasi to‘g‘risida ham turli fikrlarni o‘rtaga tashlagan. Ular hamon manba asosida jiddiy o‘rganilgan emas.

Ushbu maqolada yuqorida ko‘tarilgan mavzu doirasida o‘sha davr jadidlaridan biri Abdurahim Yo‘ldoshning(4) o‘zbek adabiy tilining tayanch dialekti haqidagi “Yangi Farg‘ona” gazetasining 1929 yilgi 24, 25, 26-sonlarida e‘lon qilgan “Bir muhim masalani yechish oldidan” maqolasidagi fikrlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Maqola nomi o‘ta umumiy bo‘lsa-da, unda o‘zbek adabiy tilining sheva bilan bog‘liq masalalari, ya‘ni uning tayanch dialekti atrofida fikr yuritadi. Biz “tayanch dialekt” deb atayotgan tushuncha unda “asos sheva” deb nomlangan. Shuni ta‘kidlash lozimki, A. Yo‘ldosh adabiy til me‘yorlarining belgilanishini uning muayyan sheva bilan bo‘g‘lanishini tushunib yetgan edi va bu muammoni “til-imlo” munozaralari doirasida hal qilishga urinadi. Bu bejiz emas, balki bu davrda adabiy tilning me‘yori imlo bilan bog‘lab me‘yor masalasini yechish an‘ana edi. Bu an‘ana A.Yo‘ldosh tomonidan ham davom ettirilgan. A.Yo‘ldosh bu maqolasida masalaning qo‘yilishi bo‘yicha o‘ziga yarasha kirish

so‘zi yozadi, ya’ni bu maqola navbatdagi til-imlo konferensiyasi arafasida yozilgan va unda uning yozilishi tub sababi to‘g‘risida ikki fikrni keltiradi:

1. Avvalgi til-imlo konferensiyalarida adabiy til me’yorlari masalasida, ya’ni uning tayanch dialekti masalasida kelishuv yuz bermaganligi, uningcha, bu masalani hal qilish uchun ishtirokchilarning bilim saviyalari kamlik qilgan. Bu fikrni “madaniy istaj (tajriba – A.S.)” ozligidan, deb biladi. Albatta, bu o‘rinda o‘sha davrda mutaxassis kadrlaring oz bo‘lganligiga ishora qilmoqda.

2. Bu masalaga manfaatdor bo‘lgan ko‘pchilikni uning hal qilinishiga torta olinmaganligi tufayli uning hal qilinmaganligiga sabab bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda u “Manfaatdor bo‘lgan ko‘pchilik” degan iborani ishlatadi, bu iborani ta’lim tizimi, matbuot xodimlari, xullas, davr ziyolilari ko‘zda tutilganligi sezilib turadi.

Masala mohiyatini yoritishni ko‘ndalang masala bilan boshlaydi. U o‘ziga savol qo‘yadi: *“Hozirgacha adabiy tilimiz yo‘q edimi?”* Bu savolga javob berib, uning mavjud bo‘lganligini e’tirof etadi, lekin unda “birlik” bo‘lmaganligini aytadi. Keyingi satrlarda bu fikridan biroz qaytib, *“adabiy til unsurlari bor, lekin juda ozdir”* deb qo‘shib qo‘yadi. Uningcha, bu birlikning ozligi uning *“bir asosga, bir yo‘lg‘a solinmagan(i) edi”*. Demak, bu fikrdan adabiy til qaysidir shevaga asoslanishi lozim demoqchi ekanligini anglash mumkin. Shu bilan bog‘lik ravishda bir amaliy fikrni o‘rtaga tashlaydi: *“Mujtahid (bu so‘z “harakatda, amalda bo‘ladigan” degan ma’noda qo‘llangan) adabiy til yaratish uchun ma’lum bir shevasini asos qilib olish kerak bo‘ladi. Lekin biz shu narsada oqsadiq. Qaysi bir shevani asos qilib olishda bir qarorg‘a kela olmadiq. Shuning uchun har bir gazeta, jurnal va yozuvchi o‘ziga yaqin bo‘lg‘an bir shevani asos qilib oldi. Albatta, falon shevani adabiy tilimiz uchun asos bo‘lsin, degan bir hukum bo‘lmag‘andan keyin shunday bo‘lishi tabiiy edi”*. Demak, A. Yo‘ldosh adabiy tilning asosi, tayanch dialekti ahamiyatini yaxshi tushungan -u, lekin uni qanday hal qilish kerakligi masalasida qat’iy bir amaliy yechim tavsiya eta olmagan.

Avvalo, tanqid qilmagan holda professor Y.D. Polivanovning adabiy til uchun Toshkent shevasini asos qilib olish haqidagi fikrini keltiradi, lekin uning bu masaladagi fikrini muhokama qilmaydi. Shuningdek, u: *“Ba’zi birovlar chig‘atoy tili unsurlari qatnashgani holda o‘zbek tilining xuddi o‘zini saqlab qolgan o‘zbek qabilalari shevasini asos qilib olish tarafdalar”*, — degan e’tirozga sabab bo‘ladigan fikrni bildiradiki, undagi *“ba’zi birovlar”*, *“o‘zbek tilining xuddi o‘zi”*, *“o‘zbek qabilalari shevasi”* tushunchalari ochiqdanmay qolgan. Uningcha, “chig‘atoy tili” an’anasini chiqarib tashlash yangi til ijod qilish bo‘lib qoladi va shu nuqtai nazardan u qo‘llanib kelayotgan, u “chig‘atoy tili” unsurlariga ega bo‘lgan tilni asos sifatida qabul qilish lozimligini uqtiradi. A. Yo‘ldosh “chig‘atoy tili” terminiga (5) murojaat qilishi bejiz emas, balki bu termin Alisher Navoiy davridan beri dunyo tilshunoslaridan aksariyatida xoh g‘arb bo‘lsin, xoh o‘z olimlarimiz bo‘lsin, qo‘llanib kelmoqda (5). Shuningdek, bu fikr bilan chegaralanib qolmaydi-da, yana: *“Shu til bilan so‘zlashkuchi qaysi shevaga suyanamiz?”* – degan masalani qo‘zg‘aydi. Demak, o‘zi ko‘zda tutayotgan

“chig‘atoy tili” bilan kifoyalanib qolmoqchi emas. Asos sheva masalasini hal qilish uchun esa u quyidagi masalalarning hal qilinishini ta’kidlaydi:

1. Shevalarimizning qaysi biri tilimizning unsurlari bo‘lgan so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llanadi?¹

2. Shevalarimizning qaysi birida tilimizning xususiyati ko‘prak saqlangan? Bu masalada A. Alaviyning “O‘zbek yangi alifbosini tuzishda asoslar” risolasiga murojaat qilishni aytish bilan cheklanadi.

A. Yo‘ldosh shu davr matbuotidagi ma’lumotlar negizida dastlab o‘zbek shevalaridagi unllilar miqdori to‘g‘risida fikrlay boshlaydi va bu masalani hal qilishda shevalarni dastlab tasnif qilishga harakat qiladi hamda shevalarni eronlashish darajasiga ko‘ra 2 guruhga ajratadi va unllilar miqdorini belgilamoqchi bo‘ladi:

1. Ortiq darajada eronlashgan Samarqand shevasida 6 unli, “forscha alif”. Uning “forscha alif” terminini hozirgi kiril transkripsiyasidagi ѓ, lotin transkripsiyasidagi ā fonemasi ma’nosida tushunish lozim.

2. Undan ozroq eronlashgan Toshkent shevasida ham 6 unli, “forscha alif”ni “turkiy alif”ga yaqin ozroq eronlashgan. Farg‘ona shahar shevasida 7-8 unli bo‘lib, Toshkent shevasidan-da ozroq eronlashgan deb ko‘rsatadi [Xudoyberdiyev, 2024: 75]. Ayniqsa, Andijon shevasida 9 unlining mavjudligi va uning biroz eronlashganligini aytadi hamda Andijon shevasining imkoniyatlariga katta baho beradi hamda uni adabiy tilga asos qilib olishni tavsiya etadi. Albatta, bu fikrda muayyan darajada haqiqat bor edi, chunki Andijon shevasi u yashagan davrda 9 unlilik xususiyatini saqlab qolganligi shubha tug‘dirmaydi. Ma’lumki, Alisher Navoiy davrida uning adabiy tili Andijon shevasiga yaqin bo‘lganligi adabiyotlarda ta’kidlangan. A.Yo‘ldosh ko‘rsatgan unllilarni shevaning fonematik tizimi deb qarajak, keyingi davrdagi S. Ibrohimov tadqiqotidagi 14 unlini fonemaning variantlari sifatida qarash mumkin.

U yana bir muhim fikrni o‘rtaga tashlaydi, ya’ni adabiy tilni faqat Andijon shevasidan iborat deb bilmaslik, balki boshqa shevalarning xususiyatlari adabiy til uchun zarur bo‘lsa, ulardan ham foydalanish mumkinligini qo‘shib qo‘yadi.

A.Yo‘ldosh bu maqolasida singarmonizmga alohida to‘xtaladi va uning adabiy tilga asos qilib olinishini yoqlaydi. Hatto u singarmonizmning ayrim belgilari shahar shevalarida ham mavjudligini ta’kidlaydi. Shu bilan birgalikda, Miyon Buzrukning lab singarmonizmini adabiy til fakti sifatida qabul qilmaslik haqidagi qarashini ma’qullaydi [Миён Бузрук, 1929: 25].

A.Yo‘ldosh o‘zbek shevalarida 6, 9-10, 13-14 unli to‘g‘risida munozaralar ko‘payganligini hisobga olib, 9 unlili shevaning adabiy tilga asos qilib olinishini ma’qul deb hisoblaydi va unga qo‘shimcha qilib yana 4ta “qo‘shaloq” unlini ham kiritadi. Shuni aytish lozimki, bu davrdagi til saboqliklarida va matbuotda til-imlo to‘g‘risida fikr yuritganlar **ij, ij, uv, üv** harfiy birikmalarini unli sifatida talqin qilish keng tus olgan edi. Bu an’anani A. Yo‘ldosh ham saqlaganligi tufayli 9+4 taklifini o‘rtaga tashlagan.

¹Jumlada uslubiy xato bor.

Umuman olganda, A. Yo‘ldosh davr tilshunosligi saviyasida fikr yurita olgan hamda o‘zbek adabiy tilining singarmonizmli sheva sifatida tasdiqlanishiga o‘z hissasini qo‘sha olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WWW. Литературный язык. Википедия.
2. WWW. Литературный язык. Википедия.
3. Ashirboyev Samixon. Alisher Navoiy asarlari tili va Andijon shevasi // O‘zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, 2020, -№1, 0.8 b.t.
4. Узоқов Х. Навқирон қалб // Комунна, 1968, 8 июн. – № 112. О‘rni bilan Q. Yo‘ldoshning jadidlarga mansubligini aniqlashda bizga ko‘mak bergan prof. V. Karimga o‘z minnatdorligimizni bildiramiz.
5. Қаранг: Блгова Г.Ф. ТЮРКСК. *чағатај* – РУССК. *чагатай- джагатай*- (Опыт сравнительного изучения старого заимствования) // Тюркологический сборник. – Москва: Наука, 1972. – С.187 – 205. Бу masala alohida muhokama qilinishi lozim. Ushbu maqola muallifi o‘z asarlarida uning o‘rnida “buyuk adabiy til” terminidan foydalanmoqda.
6. “Eronlashgan” terminiga tilshunosligimizda salbiy munosabat mavjudligi to‘g‘risida qarang: Xudoyberdiyev J. O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi. – Toshkent: TDO‘TAU, 2024. – B. 75.
7. Миён Бузрук // Яна лаб оҳони. Шарқ ҳақиқати, 1929. — № 25.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191